ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Xitoy tilini o`qitishda HSK 6 C2 darajasidagi o`zlashma so`zlar tahlili

Hamdamova Charos, "Ipak Yo`li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Annotatsiya: Maqolada xitoy tilining eng yuqori - HSK 6 darajasida qo`llaniladigan o`zlashma so`zlar, ularning xitoy tiliga kirib kelish tarixi, o`zlashish jarayonidagi fonetik o`zgarishlar, ushbu so`zlarning asliyati bilan o`xshash va farqli jihatlari, qo`llanilishi haqida so`z boradi.

Shuningdek, maqolada xitoy tilidagi o'zlashma so'zlarning manbai, qo'llanish chastotasi va talaffuz moslashuvini aniqlashga to`xtalib o`tilgan bo`lib, ayniqsa, xitoy tilini o`qitishda uchraydigan yuqori daraja so`zlardan foydalanish, ularni tushuntirishdagi qiyinchiliklar haqida fikr yuritilgan bo`lib, o`zlashma so`zlar ishtirokidagi misollarni ikki tilda – o`zbek va xitoy tillari misolida ko`rishimiz mumkin.

Аннотация:В статье рассматриваются заимствованные слова, используемые на высшем уровне владения китайским языком — HSK 6, их история появления в китайском языке, фонетические изменения в процессе заимствования, сходства и различия с оригинальными словами, а также особенности их употребления. Кроме того, в статье уделяется внимание источникам происхождения заимствованных слов в китайском языке, частоте их употребления и адаптации произношения. Особое внимание уделено использованию высокоуровневой лексики при обучении китайскому языку, трудностям её объяснения, а также приведены примеры с заимствованными словами на двух языках — узбекском и китайском.

Abstract: The article discusses loanwords used at the highest level of Chinese language proficiency — HSK 6. It explores their historical entry into Chinese, phonetic changes during the borrowing process, similarities and differences with the original forms, and their practical usage. The paper also focuses on the sources of Chinese loanwords, their frequency of use, and pronunciation adaptation. Special attention is given to the use of advanced-level vocabulary in Chinese language teaching, the difficulties in explaining such words, and examples involving loanwords are presented in two languages — Uzbek and Chinese.

**Kalit so`zlar:** HSK 6, C2, o`zlashma so`zlar, tarjima, tahlil, fonetik chastota, talaffuz moslashuvi.

Ключевые слова: HSK 6, C2, заимствованные слова, перевод, анализ, фонетическая частота, адаптация произношения.

Keywords: HSK 6, C2, loanwords, translation, analysis, phonetic frequency, pronunciation adaptation.

Bugungi kunda Xitoy tili jadal sur'atlar bilan xalqaro darajada o'rganilayotgan tillardan biridir. Xitoy tilining leksik boyligi nafaqat milliy so'zlardan, balki **o'zlashma (外来词)** so'zlardan ham iborat. Ayniqsa, **HSK 6** darajasidagi matnlarda o'zlashma so'zlar soni ko'p uchraydi. Ularni o'qitish va tushuntirish **chet tillarini o'qitish metodikasi**da alohida o'rin tutadi.

外来词 wàiláicí — bu boshqa tillardan olingan, xitoy tilining talaffuz va yozuv tizimiga moslashtirilgan so'zlardir. Ular odatda **transliteratsiya (音译)** yoki **ma'noviy tarjima (意译)** yo'li bilan kiradi. Ularga misol qilib,quyidagilarni keltirishimiz mumkin: 咖啡 kāfēi – kofe, 沙发 shāfā –

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

sofa, ya`ni divan. Ushbu so`zlar transliteratsiya yo`li bilan kirgan so`zlar bo`lib, ma`noviy tarjimaga misol qilib, 电话 (diànhuà – telephone, “elektr ovoz”).

Xitoy tilida bu singari so`zlar ko`plab uchratish mumkin va ushbu tilning eng yuqori darajasi HSK 6 darajasi ham bundan mustasno emas. Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, xitoy tiliga boshqa so`zlardan kirib kelayotgan ko`p sonli so`zlarning ta`siri ostida HSK 6 darajasiga kirib kelgan va muomalada bo`lgan so`zlarni tahlil qilamiz. Xitoy tilining eng yuqori darajasiga kirib kelgan o`zlashma so`zlar manbasini, asosan, fransuz, ingliz, yapon va rus tillari tashkil qilib, ulardan eng ko`p uchraydiganlari quyidagilardir:

Ingliz tili orqali kirib kelgan o`zlashma so`zlar: 咖啡 Kāfēi kofe, 沙发 shāfā sofa - divan, 巧克力 qiǎokèlì shokolad, 卡通 Kǎtōng multfilm. Ushbu so`zlarni, asosan, kundalik ehtiyoj uchun va madaniyat sohasiga oid kontekstlarda qo`llash holatlari mavjud.

沙龙 Shālóng – salon, 模特 mótè - model, 香水 xiāngshuǐ – xushbo`y suv, ya`ni atir so`zlari esa fransuz tilidan kirib kelgan bo`lib, xitoy tilidagi moda va madaniyatga oid matnlarda ushbu so`zlar uchraydi.

文化 Wénhuà madaniyat, 社会shèhuì jamiyat, 记者jìzhě journalist so`zlari esa, yapon tilidan kirib kelgan bo`lib, ushbu so`zlarni fan va siyosat sohalarida uchratamiz.

伏特加Fútèjiā rus tilidan kirib kelgan o`zlashma so`z bo`lib, uning ma`nosi vodka (ichimlik turi) hisoblanadi.

卡拉OK Kǎlā ok karaoke, 电脑 diànnǎo komputer – yaponcha so`zlari esa yapon tilidan o`zlashgan bo`lib, texnika sohasida ko`proq qo`llaniladi.

Yuqoridagilardan tashqari, xitoy tilida fonetik moslashuv asosida o`zlashgan so`zlar ham mavjud bo`lib, ular talaffuz qilinganda, chet tillari so`zlarini eslatadi va ularning ma`nosini anglash oson. Masalan, 披萨 Pīsà deb talaffuz qilinib, pitsa deb tarjima qilinadi.

Xitoy tiliga o`zlashgan so`zlarni o`qitish jarayonida esa o`qitishning bir necha usullarini qo`llash tavsiya etilib, ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

Taqqoslama-metodik usul. So‘zning asl va xitoycha shaklini taqqoslashga qaratilgan bo`lib, undan asosiy maqsad, talaffuzni osonlashtirishdir.

Semantik xarita usuli. So‘zning ma’no maydonini grafikda ko‘rsatib, so`zning asl ma`nosini saqlab qolishga yordam beradi.

Madaniy kontekst. So‘zning kelib chiqish tarixi va qo‘llanilishini izohlab, madaniy tafakkurni rivojlantiradi.

Rol o‘yinlari hamda matnli mashqlar. Madaniy tafakkurni rivojlantirib, nutqiy faoliyatni kuchaytiradi.

HSK 6 darajasidagi o‘zlashma so‘zlarning o‘qitilishidagi ahamiyati haida gap ketar ekan, uning l**eksikani boyitishi, t**alabalar global madaniyat, texnologiya va iqtisod sohalaridagi terminlarni o‘rganishlari, ayrim so‘zlar zamonaviy mavzularda ishlatilishini ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari, o`zlashma so`zlar m**adaniy bilimni kengaytirib, o**‘zlashma so‘zlar orqali o‘quvchi boshqa xalqlarning madaniy ta’siri bilan tanishadi. Masalan, “卡拉OK” xitoy madaniyatiga yaponlardan kirgan, lekin hozir umumxalq atamasiga aylangan. Shu bilan birga, t**alaffuz va yozuvni**

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

mustahkamlab, transliteratsiya asosida yaratilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish, xitoycha **bo‘g‘in tizimi va fonetik o‘zgarishlarni** yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

HSK 6 darajasidagi o‘zlashma so‘zlarning o‘qitilishidagi ahamiyati

1) Leksikani boyitadi. Talabalar global madaniyat, texnologiya va iqtisod sohalaridagi terminlarni o‘rganadilar. Misol: “沙龙”, “模特”, “卡通”, “博客 (blog)”, “软件 (software)” kabi so‘zlar zamonaviy mavzularda ishlatiladi.

2) Madaniy bilimni kengaytiradi. O‘zlashma so‘zlar orqali o‘quvchi boshqa xalqlarning madaniy ta’siri bilan tanishadi. Masalan, “卡拉OK” xitoy madaniyatiga yaponlardan kirgan, lekin hozir umumxalq atamasiga aylangan.

3) Talaffuz va yozuvni mustahkamlaydi. Transliteratsiya asosida yaratilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish, xitoycha **bo‘g‘in tizimi va fonetik o‘zgarishlarni** yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xitoy tilidagi 100 ga yaqin matnlarni amaliy tahlil qilganda shuni ko`rishimiz mumkinki, xitoy tilidagi o`zlashma so`zlarning deyarli yarmi 46% ingliz tili orqali o`zlashgan. Shuningdek, 28% so`zlar yaponchadan o`zlashgan bo`lsa, 15% fransuz tili orqali kirib kelgan. Qolgan 11%ini esa rus, nemis va boshqa tillar tashkil qiladi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, HSK 6 darajasidagi o‘zlashma so‘zlarni o‘qitish jarayoni biz quyidagilarga duch kelishimiz mumkin, xitoy tilining zamonaviy rivojlanish jarayonini o‘rganishga yordam beradi, talabalarda **madaniyatlararo kompetensiya**ni shakllantiradi, o‘qituvchi uchun **til, madaniyat va tarixni bog‘lab o‘rgatish imkonini** yaratadi.

O‘zlashma so‘zlar tahlilini muntazam o‘qitish xitoy tilini o‘rganayotgan talabalar uchun **murakkab matnlarni anglashni osonlashtiradi** va **HSK 6 imtihoniga tayyorgarlikni kuchaytiradi.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Khamdamova, C. “HSK tizimi orqali xitoy tili lug‘at boyligini o‘rgatishning samarali usullari.” *Til va madaniyat*, №3, 2023;

2. Xu, Dan. *Typological Change in Chinese Syntax*. Oxford University Press, 2010;

3. Zhang, Wei. *Teaching Advanced Chinese Vocabulary through Loanwords*. Beijing: Peking University Press, 2020.